

AYOL QADRI BALAND BO'LGAN YURTDA XOTIN-QIZLARGA BO'LGAN E'TIBOR VA IMKONIYATLAR

Kurbonova Gulchehra Abdullayevna

Perfect university "Gumanitar fanlar" kafedrası
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi, Turon fanlar akademiyasining
akademigi, professori
orcid=0009-0001-7191-9482
GulchehraKurbanova@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18708788>

Annotatsiya: Mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishi huquqiy kafolatlandi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilganligi, muhtaram yurtboshimiz tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish bo'yicha bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilinganligi haqidagi ma'lumotlar hamda mamlakatimizda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sog'ligini muhofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy olganligi, gender g'oyasiga ko'ra dunyoda ayol muammosi – inson muammosi, inson huquqi ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqadaligi ayollarning ijtimoiy tenglikka erishishdagi olib borilgan tarixiy islohotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: gender g'oyasi, me'yoriy hujjatlar, ijtimoiy tenglik, Xotin-qizlar, ijtimoiy vaziyat, reproduktiv, gender savodxonligi, jamiyat va davlat, tsivilizatsiya.

ВНИМАНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ЖЕНЩИН В СТРАНЕ, ГДЕ ЖЕНЩИНЫ ЦЕНЯТСЯ

Аннотация: Статья посвящена исследованию творческого развития будущих специалистов в образовательном процессе, выделению роли профессионально-оперативного мышления студентов педагогического вуза в решении педагогических и психологических задач. В нашей стране женщинам законодательно гарантировано полноценное участие во всех сферах жизни общества в качестве активных членов. Осуществление масштабных реформ, направленных на достижение равных прав и возможностей для женщин и мужчин, обеспечение их равного участия в управлении обществом и государственными делами, оказание социально-правовой поддержки женщинам и защиту женщин от угнетения и насилия. Уважаемый Президент пообещал повысить социально-политическую активность женщин, защитить их здоровье и поддержать их стремления и инициативы. Информация о принятии ряда нормативных документов, направленных на создание достойных условий труда и жизни для женщин, а также о том, что улучшение положения женщин в нашей стране, защита их свободы, прав, интересов и здоровья входят в число приоритетов государственной политики. В соответствии с гендерной концепцией, проблема женщин в мире является проблемой,

всего человечества, вопрос прав человека, женские проблемы тесно связаны с обществом, социальными отношениями, нациями, государствами, культурами и цивилизациями, и здесь подчеркиваются исторические реформы, проведенные для достижения социального равенства для женщин.

Ключевые слова: Гендерная концепция, нормативные документы, социальное равенство, женщины, социальная ситуация, репродуктивное здоровье, гендерная грамотность, общество и государство, цивилизация.

ATTENTION AND OPPORTUNITIES FOR WOMEN IN A COUNTRY WHERE WOMEN ARE VALUED

Abstract:

In our country, women are legally guaranteed full participation in all spheres of society as active members. Implementation of large-scale reforms aimed at achieving equal rights and opportunities for women and men, ensuring their equal participation in the governance of society and public affairs, providing social and legal support to women and protecting women from oppression and violence. The esteemed President promised to increase women's socio-political activity, protect their health, and support their aspirations and initiatives. Information on the adoption of a number of regulatory documents aimed at creating decent working and living conditions for women, as well as the fact that improving the status of women in our country, protecting their freedom, rights, interests and health are among the priorities of state policy, In accordance with the gender concept, the issue of women in the world is a problem of all humanity and a matter of human rights. Women's issues are closely connected with society, social relations, nations, states, cultures, and civilizations, and special emphasis is placed on the historical reforms carried out to achieve social equality for women.

Key words: Gender concept, normative documents, social equality, women, social situation, reproductive health, gender literacy, society and state, civilization.

Kirish

Har bir davrning o'z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ularni shakllantirish va rivojlantirish, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlash, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beruvchi ulkan tarixiy voqealar bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ayollar huquqlarini himoya qilish borasidagi birinchi qadamlaridan biri bu - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" - deya e'tirof etilishi bo'ldi. Bu bilan mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishi huquqiy kafolatlandi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirildi.

Muhtaram yurtboshimiz tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish bo'yicha bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, shulardan Gender tenglik va ayollarni zo'rvonlik va tayziqlardan himoya qilishdan iborat.

Jumladan:

- - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi – "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni;
- - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 285-sonli qarori;
- - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-sonli qarori;
- - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 - noyabrdagi "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 919-sonli qarori;
- - O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni;
- - O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni;
- - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 martdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 192-sonli qarori;
- - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 402-sonli qarorlari.

Xususan, barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqсад — Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir. Jumladan, «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) qabul qilingan. Undan tashqari gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy majlisga Murojatnomasida ilgari surilgan muhim masalalardan biri xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, ularga yangi imkoniyatlar yaratish bo'yicha Murojati", shu bilan birga 2021 yil 22 - fevraldagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson huquqlari bo'yicha kengashning 46-sessiyasidagi nutqida "Gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettirish" masalasiga alohida to'xtalib o'tilgandi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda gender tenglikka erishish nafaqat demokratik qadriyatlardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon miqyosida orttirilgan tajriba shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar mavjud davlatlarda aholi turmush farovonligi va ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori darajada bo'lib, islohotlar muvaffaqiyati ta'minlanadi. **"Gender"** xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilmfan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati [1].

Xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari E.Mayer, K.Xiggins, I.Kon, A.Mudrik, L.Popova, I.I. Yukina, Yu.S.Tukacheva, L.I. Stolyarchuk va boshqalarning tadqiqotlarida gender va ta'limda gender yondashuv masalalari o'g'il va qiz bolalarga ta'limda bir xil imkoniyatlarni berish va tenglikni ta'minlash; o'quv jarayonida o'g'il va qiz bolalarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun xizmat qiladigan o'qitishning shakl va metodlari, vositalarini tanlash; ta'lim muassasasida gender bag'rikenglikni, gender tenghuquqlilikni ta'minlash, shuningdek ta'lim mazmunining gender tahlilini amalga oshirish, o'qituvchilarning gender savodxonligini oshirish kabi yo'nalishlar keng o'rganilgan [2].

Jamiyat rivojini ayol-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Xotin-qizlarning oilada, jamiyatda tutgan o'rni beqiyos. Oqila, go'zal ayollarimiz o'zlarining mehri, g'amxo'rliги bilan oilada, qolaversa, butun jamiyatda poklik, samimiyat va yuksak ma'naviy muhitini shakllanishiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqdalar. Darhaqiqat, yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xotin-qizlarning faolligi kundan-kunga ortib bormoqda va buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonamizda ayollar tadbirkorliklari, faolliklari bilan, siyosiy va iqtisodiy sohalarda o'z mavqelarini saqlab qolmoqdalar. Ayniqsa oxirgi 6-7 yil ichida olima ayollarimiz mustaqillik ne'matiga erishgach, ijodlariga keng yo'l ochilganligini his qildilar. Ayollarimiz muammolarni hal qilishda erkaklardan qolishmagan holda harakat qilishi mumkinligiga shonli tariximiz ham guvohlik berishi e'tirof etiladi [3].

Albatta ayolni qo'llab quvvatlovchi oila a'zolari va turmush o'rtog'ining roli katta. Oila jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. U inson avlodini davom ettirishdek buyuk va ulug'vor vazifani bajaradi. Oila odamning shakllantiruvchi, mehnat qobiliyatini tiklashga xizmat qiluvchi va eng muhimi ma'naviy tarbiyalovchi muhitdir. Bolalikning dastlabki yillarida inson shaxsi fe'l-atvorining asosi vujudga keladi, insoniylik fazilatlarini va ahloki tarkib topa boshlaydi. Oila to'g'risida so'z ketgan zahoti uning bosh vazifasi sifatida farzand ko'rish, nasl qoldirish, avlodlar o'rtasidagi vorisiylilikni, bog'liqlikni ta'minlovchi farzandlar etishtirish – reproduksiya tilga olinadi. Ayollarning vazifasi uchta: reproduktiv, produktiv va ijtimoiy vazifalardir. Reproaktiv vazifa – bola tug'ish va uy-xo'jaligini yuritish – ish kuchini tiklash va saqlab turish uchun zarur». Bu o'rinda reproduktiv vazifa ayollar bilan bog'liq vazifa sifatida tilga olinayotgani bejiz emas. Sharqda oila va farzand ko'rish, Bola tarbiyasi eng avvalo ayol bilan bog'liq holda tushunilib, ushbu vazifa ayolga taalluqli deb qaraladi. Shuning uchun Sharq poetikasi va adabiyotlarida «ahlu ayol» iborasi keng qo'llaniladi. «Ahl» degani oila, ayol demakdir. Aynan reproduktiv vazifa ayolni oilaga, oiladagi bajariladigan vazifalarga bog'lab qo'yadi, uning ko'p vaqti oilada kechadi. Dinda er-xotin munosabatlarini ma'naviy-axloqiy asosda mustahkamlashga da'vat bor. Demak, oiladagi diniy urf-odatlar insonning erkin va ezgu amallarga muvofiq yashashi uchun

muhimdir. Islom dini negizidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, qarashlarning qimmatini ham shundadir. Kishilar erkin ijodiy faoliyat va elga, yurtga manzur ijtimoiy vazifalarni bajarish martaba bilan bog'liqligini to'g'ri anglaydilar. Ularning fikriga ko'ra, martabaga intilish ma'naviy-axloqiy qoralanadigan amal, qiziqish emas, har bir kishi o'z xohishlari, qiziqishlari va ko'nikmalariga mos keladigan darajadagi vazifani egallashi mumkin.

Oilaviy hayot uchun er yoki xotinning martabaga erishishi muhim. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti oiladan tadbirkorlikni, ishbilarmonlikni, o'zini o'zi boqishni talab etayotganida martaba ana shu ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida baholanishi turgan gap. Demak, martabaga erishish ma'naviy manfaatlar qatoridan chuqur o'rin olgan. Oiladagi ma'naviy-madaniy va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishi oila a'zolarining, eng avvalo, erkak kishining yuqori martabasiga ham bog'liq, degan fikr jamiyatimizda mavjud.

Ammo keyingi yillarda martabaga intilish ayollar o'rtasida ham keng tarqalayotgan voqelikka aylanmoqda. Bunda ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotda erkin qatnashayotgani, ayniqsa, ularning ushbu faolligini davlat, jamiyat qo'llab-quvvatlayotgani ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu intilishlar, qiziqishlar oilaviy hayotga, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Oiladagi ma'naviy-madaniy va ijtimoiy-axloqiy muhit nafaqat ota-onalar, balki farzandlarning ham ma'naviy xislatlariga bevosita bog'liqdir. Hatto farzandlarning ma'naviy-madaniy qiziqishlari va ijtimoiy-axloqiy fazilatlarini ba'zan oiladagi munosabatlarni belgilab beradi.

Ming afsuski, ayrim oilalarda ma'naviy va aqliy yetishmovchilik sababmi, hozirgi kunda ham ayollarga nisbatan oilalarda tazyiq zo'rvonliklar uchrab turibdi. Ayrim oilalarda ayolning vazifasi farzand tarbiyalash, uy ishlarini bajarish, qaynona – qaynota xizmatini qilish degan qarashlar bilan cheklanib qolmoqdamiz. Lekin jamiyatda ayollarning o'rnini beqiyosligini har doim ham tushunavermaymiz. Ayrim oiladagi kelishmovchiliklar, janjallar, ajrimlar aynan xotin-qizlarning o'rnini faqat oilada degan qarashlar sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda xotin-qizlarni zo'rvonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'rvonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo'rvonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo'rvonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo'rvonliklardan himoya qiladi.

So'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, ilgari "yopiq" bo'lgan hozirgi kunga kelib, zo'rvonlik mavzusini keng yoritish imkonini berdi. Ichki ishlar organlarining zo'rvonlikka qarshi kurashdagi faoliyatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar asosan quyidagilardan, ya'ni:

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi;

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi; O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;

2010 yil 29 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni;

2014 yil 14 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni;

2016 yil 16 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni;

2019 yil 23 avgustda qonunchilik palatasi tomonidan xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida qonun;

2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuni;

2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni;

Bulardan tashqari **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PQ-2896-sonli "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-sonli "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PQ-3808-sonli "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi PQ-3827-sonli "Ijtimoiy rehabilitatsiya qilishva moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 fevraldagi "Yetim bolalar va otanasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4185-son qarorlari ishlab chiqildi. Bu qaror va qonunlar albatta faravon xayot, sog'lom turmush, porloq kelajak uchun yana bir marta ayollarni qo'llab -quvvatlash maqsadida xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, butunjahon iqtisodiyot forumi ekspertlari oxirgi besh yilda yuqorida ta'kidlangan holatlar bo'yicha reytingni tuzib keladilar. Bunda ular quyidagi mezonlarni hisobga oladilar:

- 1) mehnatga haq to'lashdagi farq;
- 2) erkaklar va ayollar daromadlarining nisbati;
- 3) boshqaruv tuzilmasiga kiruvchi hamda mehnat bilan mashg'ul bo'lgan yuqori malakali ayollar soni;
- 4) ayollarning ma'lumotlilik darajasi;
- 5) tug'ilish, oiladagi hayot sharoitlari va uzoq hayot kechirish bo'yicha farqlar;
- 6) parlament a'zolari bo'lgan ayollar va vazir ayollar soni va boshqalar.

Vaholanki, jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida erkak va ayollar o'rtasidagi kasbiy - professional va oilaviy-nikoh munosabatlaridagi tenglik g'oyalarni zo'r berib targ'ib qilinsada

rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ko'p jabhalarda gender tafovut hamon saqlanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, birgina bo'sh vaqt taqsimotiga ko'ra ayol uy ishlariga 33,6 foiz, erkaklar 11,3 foiz vaqt sarflaydi. Ayollar sutkada uy ishiga 3 soat, erkaklar esa 0,65 soat sarflaydilar. Bundan tashqari, ayol ham 8 soat mehnat qilib, oilada erkak kabi hordiq chiqarish, madaniy dam olish orzusi bilan yashaydi"[4].

Xullas, modernizatsiyalashayotgan jamiyatda ayolning o'rni va roli haqida gap ketar ekan, bu **ijtimoiy voqelik** sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Hozirda ushbu masalaga oid bahs-munozaralarda bir-biriga zid ikki xil qarash shakllanib ulgurdi:

Birinchi yondashuvga binoan ayollar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faol ishtirok etishlari zarurligi ta'kidlanadi. Bunday pozitsiyada turuvchilar aksariyat hollarda ayollar va erkaklarning huquqiy tengligini ularning amaliy tengligi ma'nosida talqin etadilar.

Ikkinchi yondashuv vakillari esa mohiyat-e'tibori bilan ayollar faoliyatini asosan oilaviy turmush doirasi bilan cheklab qo'yish g'oyasini ilgari suradilar. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularni innovatsion faoliyatga undash davr talabi bo'lib, bu borada nozik muvozanatni ushlab turish murakkabligicha qolmoqda. Dunyo mamlakatlari aholisining turmush tarzi, milliy-etnik xususiyatlari, globallashish, modernizatsiya jarayonlari bilan to'qnash kelgan bir davrda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faoligi jamiyat va shaxs hayoti barqarorligini ta'minlash omili sifatida yuqori intellektual yondashuvlar asosida qo'llab-quvvatlanishi esa davr talabi bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayollarga huquq va imkoniyat berish erkaklarni yomon ko'rish va keksalarni hurmat qilmaslikni anglatmaydi. Ayollar baribir tabiatiga xos bo'lganligi uchun farzandlariga (ular ko'pincha shu uchun mos bo'lgan ishlarda mehnat qilishadi) va uydagi keksalarga qo'lidan kelganicha g'amxo'rlik qilishadi. Ammo ularga uy bekasi yoki mutaxassis bo'lishni tanlash va zo'ravonliksiz hayot kechirish imkoniyatini berish kerak. Gap bu yerda O'zbekiston Konstitutsiyasiga asoslangan holda ayollarga adolatli munosabatda bo'lish va ularning xuddi erkaklar singari imkoniyatlardan foydalanish huquqini ta'minlab berish haqida ketmoqda. O'zbek jamiyati yaqin kunlarda zo'ravonlik va kamsitishlarga barham berish masalasiga tizimli yondashuvga erishiladi. Bu bolalarning hozirgi va kelajak hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, ushbu qadam taraqqiyot uchun muhimdir. Imkon qadar ko'proq erkaklar (va ayollar) ushbu g'oyalarni targ'ib qilishiga umid qilaman, chunki bu hammamizning uzoq muddatli manfaatlarimizga mos keladi.

Qolaversa, ayol ma'naviyati, axloqi – bizning hayotimiz, turmush tarzimizni ko'rsatib turuvchi oynadir. U uyida tejamkor, sarishtali, muomalali bo'lsa, farzandining o'qishi, yurish-turishini kuzatsa, o'zi kitob o'qisa, gazeta varaqlasa, sport bilan shug'ullansa, bularning barini ko'rib voyaga etayotgan bolalari ham oiladagi tutum, munosabatdan ibrat oladi. Xotin-qizlarimizning nufuzi beqiyos darajada ortishi bilan birga ularning manfaatini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikamiz xotin-qizlar qo'mitalari tomonidan o'tkazilayotgan har bir anjuman va tadbirlarning zamirida ham, asosan, inson manfaati, yurt farovonligi, tinchligi masalasi asosiy o'rin olgan. Ma'naviyati yuksak, ma'rifatli ayol haqiqiy boy ayoldir. U har qanday og'ir vaziyatda ham imkon topa oladi. Ishning ko'zini biladi, oiladagilar ko'nglini kichik bir imo-ishoradan, ko'z qarashidan anglay oladi. Ilmli, sabr-qanoatli, ma'naviyatdan xabardor ayol va onalar har qanday sharoitda ham turmush tashvishlari, kamchiliklarini bartaraf qilish yo'llarini izlab topa oladilar.

Gender tenglik bu – huquqlarning tengligi demakdir. Hayotning har jabhalarida ayol va erkaklarga bo'lgan munosabat hamda imkoniyatlarning tengligidir. Insonlarning huquq va burchlari ularning erkak yoki ayol bo'lib yaratilganiga bog'liq emas. Bu esa ayol va erkaklar bir xil bo'lishi kerakligini anglatmaydi. Balki, ularning tanlovlari mustaqil bo'lishi kerakligi, o'z fikrlarini erkin bayon eta olishi va o'zini har qanday sohada ko'rsata olishi kerakligini anglatadi.

Hozirgi kunga qadar, ilm-fan-texnika tushunchalari haqida gap ketganida, negadir xayolimizga bu sohalarda faqatgina erkaklarga ishlashi mumkin degan fikr kelar edi. Har bir insonning, u hoh erkak kishi hoh ayol kishi bo'lsin bilim olishi uchun, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun hamda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun biron bir sabab to'siq bo'la olmaydi. Ayollarning yuqori lavozimlarda faoliyat yuritmaslik yoki ba'zi sohalarda kam uchratishimiz ularning bilimsizligini belgilab bermaydi.

Ilmiy tadqiqotlar sohasini dunyo miqyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bo'limlarida o'qish bo'yicha ayollar erkaklarni ortda qoldirar ekan. Oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchi talabalari orasida ayollarning ulushi 53 %ni tashkil etishiga qaramay, ming afsuslar bo'lsinki, bu ko'rsatkich, doktorlik darajasiga yetmay o'z-o'zidan tushib ketar ekan. Ya'ni erkaklarning ulushi 57 %ga ilgarilab ketadi [5].

Ayollarnig **huquqiy ijtimoiylashuv**da yana bir muhim jarayon huquqiy qadriyatlarini o'zlashtirishda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, «huquqiy qadriyatlar – bu insonlar, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolar tomonidan e'zozlanadigan, qadrlanadigan, ularning manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy: normalar, g'oyalar, qarashlar, institutlar, tamoyillar va hodisalardir»[6]. Ularni o'zlashtirish orqali sub'yekt mukammal darajada **huquqiy ijtimoiylashuv**ga erishadi.

Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi. Har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi, shu bilan birga, olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma'qul tushadigan yo'l-yo'riqlari mavjud emas. Oila jamiyatning boshlang'ich **ijtimoiy bo'g'in**idir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatishi bugungi kundagi eng dolzarb masala bo'lib qolmog'i lozim.

Har bir oilada bolalarning axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lishlari, jamiyat bunda mas'ul ekanligini inobatga olib, oilaviy munosabatlar bilan bog'liq davlat miqyosidagi rejalar ishlab chiqishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, Ayollarnig **huquqiy ijtimoiylashuv**da yana bir muhim jarayon huquqiy qadriyatlarini o'zlashtirishda o'z ifodasini topadi, oilada esa ota-onalar va bolalarni bir-birlari oldidagi huquq va majburiyatlarining darajasi shu oilada yashovchi har bir shaxsning individual dunyoqarashi va axloqiy yetukligi bilan bog'liqdir. Oilaviy munosabatlarni amalga oshirishning mavjud usullari turli-tumanligi bilan farqlanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonuni. – 2019 yil 2 sentyabr'

2. O.Jamoldinova, M.Mirsoliyeva, K.Risqulova, Pedagogik ta'limda gender yondashuvi masalalari // Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorni rivojlantirish: yangi shakllari va ta'lim mazmuni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2020. –B. 99-101.
3. Eshonqulova A.X. Xotin-qizlarning ta'lim va ilm-fandagi faoliyatlari. // Markaziy Osiyo davlatlari olimi ayollarining ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1-qism). Toshkent, 2020.-349 b.
4. Shayxova X.A. .Ayol mavqei va uning muhim muammolari. // Xotin-qizlar kamsitilishiga qarshi kurashning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-psixologik muammolari. Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari. 2008 yil 12 iyun' // Falsafa va huquq instituti nashriyoti. – 14 b.
5. Abreu A. (2011) National Assessments of Gender, Science, Technology and Innovation: Brazil. Prepared for Women in Global Science and Technology and the Organization for Women in Science for the Developing World: Brighton (Canada). ASSAf (2011) Participati;
6. Yakubov Sh.U. O'zbekiston huquqiy tizimida huquqiy qadriyat va ta-moyillarning shakllanishi. Avtoreferat yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun. –Toshkent. 2008. –B. 12.